

YAKKABOG‘ TUMANINING TABIIY-GEOGRAFIK SHAROITI VA LANDSHAFT TUZILISHI

Sultonov Shuxrat Adxamovich

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti,
O‘zbekiston, Shahrisabz shahri*

Suyunova Irodaxon Abdimannon qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi
O‘zbekiston, Shahrisabz shahri*

Raximova Dildora Zubaydulla qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi
O‘zbekiston, Shahrisabz shahri*

Annotatsiya. Maqolada Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumanining relyefi, iqlimi, suv resurslari, tuproq va o‘simlik qoplamasi so‘nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlar asosida tavsiflanadi. Balandlik mintaqalanishi asosida tumanda to‘rt landshaft guruhi ajratilib, ulardan xo‘jalikda foydalanish xususiyatlari va geoeologik muammolar ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: Yakkabog‘ tumani, Hisor tizmasi, Yakkabog‘daryo, adir, bo‘z tuproqlar, balandlik mintaqalanishi, landshaft.

ПРИРОДНО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ И ЛАНДШАФТНАЯ СТРУКТУРА ЯККАБАГСКОГО РАЙОНА

Султанов Шухрат

*доцент Шахрисабзского государственного педагогического института,
Узбекистан, город Шахрисабз*

Суюнова Иродахон

*студент Шахрисабзского государственного педагогического института
Узбекистан, город Шахрисабз*

Рахимова Дилдора

*студент Шахрисабзского государственного педагогического института
Узбекистан, город Шахрисабз*

Аннотация. В статье на основе научных исследований последних лет охарактеризованы рельеф, климат, водные ресурсы, почвенный и растительный покров Яккабагского района Кашкадарьинской области. С учётом высотной поясности в районе выделены четыре группы ландшафтов. Показаны особенности их хозяйственного использования и геоэкологические проблемы.

Ключевые слова: Яккабагский район, Гиссарский хребет, Яккабагдарья, адыры, серозёмы, высотная поясность, ландшафт.

NATURAL-GEOGRAPHICAL CONDITIONS AND LANDSCAPE STRUCTURE OF YAKKABOG DISTRICT

Sultanov Shukhrat Adkhamovich

Associate Professor of the Shakhrisabz State Pedagogical Institute,

Uzbekistan, Shakhrisabz city
Suyunova Irodaxon Abdimannon kizi
student of the Shakhrisabz State Pedagogical Institute
Uzbekistan, Shakhrisabz city
Raximova Dildora Zubaydulla kizi
student of the Shakhrisabz State Pedagogical Institute
Uzbekistan, Shakhrisabz city

Abstract. Based on recent scientific research, the article describes the relief, climate, water resources, and soil and vegetation cover of Yakkabog district, Kashkadarya region. Four landscape groups are identified in the district according to altitudinal zonation. The features of their economic use and the related geoecological problems are also described.

Keywords: Yakkabog district, Gissar Range, Yakkabogdarya River, adyrs (piedmont hills), sierozems, altitudinal zonation, landscape.

Kirish. Har bir hududning tabiiy sharoiti va landshaft tuzilishini bilish yer va suvdan to'g'ri foydalanish, tuproq eroziyasining oldini olish hamda tabiatni muhofaza qilish uchun zarur [1; 12]. Tog', tog'oldi va tekislikni birga qamrab olgan tumanlarda bu masala ayniqsa muhim, chunki kichik maydonda bir-biridan keskin farq qiladigan tabiiy komplekslar joylashadi.

Yakkabog' tumani Qashqadaryo viloyatining sharqida, Hisor tizmasi tarmoqlari bilan Qashqadaryo tekisligi tutashgan joyda joylashgan. So'nggi yillarda bu hudud tabiati landshaftshunoslik [1; 2], tuproqshunoslik [4], botanika [5; 6] va ekoturizm [3] yo'nalishlarida o'rganilgan. Biroq bu tadqiqotlar asosan butun Janubi-g'arbiy Hisor yoki Qashqadaryo havzasi miqyosida bajarilgan. Mazkur ishning maqsadi ushbu ma'lumotlarni umumlashtirib, Yakkabog' tumani misolida landshaft tuzilishini yoritishdan iborat.

Tadqiqotda adabiyot va xaritalarni tahlil qilish, qiyosiy-geografik va landshaft-tipologik usullardan foydalanildi.

Geografik o'rni va relyefi. Tuman shimolda Chiroqchi va Shahrisabz, qolgan tomonlarda Qamashi tumanlari bilan chegaradosh [9]. Maydoni 1,1 ming km², aholisi 266 ming kishidan ortiq [10]. Aholi asosan tumanning g'arbiy, sug'oriladigan qismida zich joylashgan.

Tuman relyefining asosiy xususiyati uning sharqdan g'arbga qarab pog'onasimon pasayib borishidir. Sharqiy qismida Hisor tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlari joylashgan. Ular g'arbga tomon pasayib adirlarga, adirlar esa Qashqadaryo tekisligiga o'tadi [1; 9]. Tog'lar asosan qadimgi (paleozoy) jinslardan, adir va tekisliklar esa yumshoq lyoss va daryo yotqiziqlaridan tuzilgan [4; 14]. Tog'larda eroziya, sel va surilma kabi jarayonlar faol kechadi [7].

Iqlimi. Tuman iqlimi keskin kontinental: yozi uzoq va issiq, qishi qisqa va nisbatan yumshoq. Tekislik va adirlarda yillik o'rtacha harorat 15°C atrofida bo'lib,

balandlik ortgan sari pasayib boradi [2; 9]. Yog'in esa, aksincha, tog'larga tomon ko'payadi. Relyefning g'arbga qarab pasayishi nam havo massalarining tog' yonbag'irlarida to'xtab qolishiga sabab bo'ladi. Shu tufayli adirlarda lalmikor (sug'orilmaydigan) dehqonchilik qilish uchun yetarli yog'in tushadi [9].

Iqlimning balandlik bo'yicha o'zgarishi xo'jalikka ham ta'sir qiladi: tog'oldida pillachilik va pistachilik, o'rta tog'larda bog'dorchilik va asalarichilik uchun sharoit qulay, eng baland qismlar esa faqat yozgi yaylov sifatida foydalaniladi [2].


Suv resurslari. Tumanning asosiy suv manbai – Yakkabog'daryo (Qizildaryo). Uning uzunligi 99 km bo'lib, asosan qor va muzlik suvlaridan to'yinadi [11; 16]. Shu sababli daryo bahor va yoz boshida sersuv bo'ladi. Yakkabog'daryo sersuvligi bo'yicha Qashqadaryo havzasida ikkinchi o'rinda turadi, ammo Qashqadaryoga to'g'ridan-to'g'ri quyilmaydi: tog'dan chiqqach Qorabog' va Qizilsuv tarmoqlariga bo'linadi, Qizilsuv esa Tanxozdaryo orqali Qashqadaryoga qo'shiladi [2].

Daryo suvini sug'orish mavsumida teng taqsimlash uchun Qorabog', No'g'ayli, Yangiqo'rg'on suv omborlari qurilgan. Darxon, Beshariq, Xo'jailg'or va Qurjab ariqlari asosiy sug'orish tarmoqlari hisoblanadi [9].

Tuproq va o'simlik qoplami. Tuproqlar ham balandlikka qarab almashinadi. Tekislik va past adirlarda och tusli va oddiy bo'z tuproqlar, baland adirlarda to'q tusli bo'z tuproqlar, tog'larda esa tog' jigarrang va tog'-o'tloq tuproqlari tarqalgan [4; 12]. Yakkabog' tumanida lalmi yerlarning ulushi katta, ammo qiya yonbag'irlar va eroziya ulardan foydalanishni cheklaydi [2; 8].

O'simlik qoplami K.Z. Zokirov ajratgan balandlik mintaqalariga mos keladi [13]. Past qismlarda tabiiy o'simliklar deyarli saqlanmagan, ularning o'rnini ekinzor va bog'lar egallagan. Adirlarda efemer o'tlar, tog'larda archazor, butazor va yong'oq-mevali o'rmon qoldiqlari, eng baland qismlarda esa subalp va alp o'tloqlari uchraydi. Tuman sharqidagi tog'larda Hisor davlat qo'riqxonasi Qizilsuv bo'limi joylashgan. Bu bo'lim hududdagi eng yaxshi archa o'rmonlaridan birini muhofaza qiladi [15]. Qo'riqxona hududida qor qoplari, qo'ng'ir ayiq, Turkiston silovsini kabi noyob hayvonlar yashaydi [14]. Tuman hududidagi Xontaxta tog' massivining daraxt-buta florasi alohida o'rganilgan [6].

Landshaft tuzilishi. Tabiiy komponentlarning balandlik bo'yicha qonuniy almashinuvi natijasida tumanda g'arbdan sharqqa qarab to'rt landshaft guruhi ajratiladi (1-rasm). R.X. Allayorov ko'rsatganidek, landshaftlardan xo'jalikda foydalanish darajasi tog'lardan tekislikka qarab ortib boradi [1; 2].



1-rasm. Yakkabog' tumani landshaft guruhlarining g'arbdan sharqqa sxematik profili (rasm mualliflar tomonidan [1; 2; 9] ma'lumotlari asosida tuzilgan)
Har bir landshaft guruhining asosiy belgilari 1-jadvalda qiyoslab berilgan.

1-jadval.

Yakkabog' tumani landshaft guruhlarining qiyosiy tavsifi

Landshaft guruhi	Joylashuvi	Tuproqlari	O'simlik qoplami	Xo'jalikda foydalanish
I. Tekislik-voha agrolandschaftlari	Tumanning g'arbiy qismi, daryo yotqiziqlaridan tuzilgan tekislik	Sug'oriladigan och tusli va oddiy bo'z tuproqlar	Tabiiy o'simlik deyarli yo'q; ekinzor, bog', tutzor	Sug'orma dehqonchilik, aholi punktlari
II. Tog'oldi (adir) landshaftlari	Tog' etaklaridagi lyosli to'liqinsimon qirlar	Oddiy va to'q tusli bo'z tuproqlar	Efemer va efemeroid o'tlar	Lalmikor dehqonchilik, bahorgi yaylov
III. Past va o'rta tog' landshaftlari	Hisor tarmoqlarining yonbag'irlari va daryo vodiylari	Tog' jigarrang tuproqlar	Archazor, butazor, yong'oq-mevali o'rmon qoldiqlari	Yaylov chorvachiligi, o'rmonchilik, rekreatsiya
IV. Baland tog' landshaftlari	Yakkabog' daryo havzasining eng yuqori qismi	Tog'-o'tloq tuproqlari	Subalp va alp o'tloqlari	Tabiatni muhofaza qilish (qo'riqxona), yozgi yaylov, ekoturizm

Manba: muallif tomonidan [1; 2; 4; 9; 13] ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1-jadvaldan ko‘rinadiki, tekislik va adir landshaftlari inson faoliyati ta’sirida kuchli o‘zgargan, tog‘ landshaftlari esa tabiiy holatini nisbatan saqlab qolgan. Yakkabog‘ adirlari Janubi-g‘arbiy Hisordagi eng ko‘p o‘zgartirilgan landshaftlar qatoriga kiradi [1].

Geoekologik muammolar. Tuman landshaftlaridagi asosiy muammolar quyidagilar: adirlarda qiya yerlarni haydash va ortiqcha mol boqish natijasida tuproq eroziyasi va jarlanishning kuchayishi [2; 8]; tog‘oldi yaylovlarida o‘simlik qoplamining siyraklashuvi; daryo oqimi sug‘orish mavsumiga to‘liq mos kelmagani sababli suv taqchilligi; qo‘riqxonada atrofida o‘tin tayyorlash va dorivor o‘simliklarni nazoratsiz terish.

Xulosa. Yakkabog‘ tumanining tabiiy sharoiti Hisor tizmasi tarmoqlaridan g‘arbga qarab pasayuvchi relyef bilan belgilanadi. Relyefga bog‘liq holda iqlim, tuproq va o‘simlik qoplami almashinib, tumanda to‘rt landshaft guruhi shakllangan: tekislik-voha, adir, past va o‘rta tog‘ hamda baland tog‘ landshaftlari. Tumanning suv ta’minoti tog‘ landshaftlariga bog‘liq, shu sababli ularni muhofaza qilish butun tuman uchun muhim. Adirlarda eroziyaga qarshi tadbirlar (yonbag‘ir bo‘ylab haydash, ixotazorlar, pista kabi qurg‘oqchilikka chidamli ekinlar), sug‘oriladigan yerlarda suv tejovchi texnologiyalar, tog‘larda esa qo‘riqxonada rejimiga mos ekoturizmni rivojlantirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Allayorov R.X. Janubi-g‘arbiy Hisor tog‘ va tog‘oldi landshaftlaridan foydalanish va geoekologik vaziyatni optimallashtirish: g.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 50 b.
2. Allayorov R.X. Janubi-g‘arbiy Hisor tog‘ va tog‘oldi landshaftlarining imkoniyatlari va ulardan foydalanish // “Zamonaviy geografiyada innovatsion g‘oyalar: raqamli iqtisodiyot va GIS texnologiyalar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. I qism. – Qarshi: QarDU, 2024. – B. 97–102.
3. Yusupov B.B. Qashqadaryo havzasi tog‘ va tog‘oldi landshaftlarida ekologik turizmni rivojlantirish istiqbollari: g.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2025.
4. Qorayev A.X. Hisor tog‘ tizmalari lalmi tuproqlari va ularning sifatini baholash: b.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – 46 b.
5. Omonov O. Hisor davlat qo‘riqxonasining Qizil kitobga kiritilgan endem o‘simlik turlari // QarDU xabarlar. – 2015. – №1(23). – B. 99–101.
6. Baysunov B.X., Omonov O.E., Buxorov J. Qashqadaryo botanik-geografik rayoni janubi-g‘arbiy qismi (Xontaxta tog‘ massivi) dendroflorasi // [2]-manbadagi to‘plam. – Qarshi, 2024. – B. 115–118.
7. Муртазаев Б.Ч. К вопросу изучения физико-географических процессов в горах Юго-Западного Гиссара // “Zamonaviy geografiyada innovatsion g‘oyalar:

raqamli iqtisodiyot va GIS texnologiyalar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. I qism. – Qarshi, 2024. – С. 78–85.

8. Усманова Р., Абдимўминова М. Эрозионные процессы почв в агроландшафтах Кашкадарьинской области // “Zamonaviy geografiyada innovatsion g‘oyalar: raqamli iqtisodiyot va GIS texnologiyalar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. I qism. – Qarshi, 2024. – С. 67–71.

9. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zME DIN, 2005.

10. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. Hududlar bo‘yicha shahar va qishloq aholisi soni. – URL: <https://www.qashstat.uz>

11. Шульц В.Л. Реки Средней Азии. – Л.: Гидрометеониздат, 1965.

12. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

13. Закиров К.З. Флора и растительность бассейна реки Зеравшан. Ч. 1–2. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1955–1962.

14. Sultonov Sh.A. Qashqadaryo viloyati tog‘li hududlarida foydali qazilmalarni geografik tarqalishi. Экономика и социум №3(130)-1 2025, www.iupr.ru. ЭС-2025-030076, ISSN 2225-1545.

15. “Hisor” davlat qo‘riqxonasi // O‘zR Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, 2025. – URL: <https://gov.uz/oz/eco/news/view/22695>

16. Hisor qo‘riqxonasida yangi Tashrif markazlari barpo etiladi // BMTTD O‘zbekiston, 14.05.2021. – URL: <https://www.undp.org/uz/node/133416>